

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, II-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA MUAMMOLI KREDITLARNI BARVAQT ANIQLASHNING SUN'YI INTELLEKTGA ASOSLANGAN MENEJMENT MODELINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	14
Alovuddin Jamolov	
YASHIL TRANSPORT: BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAMARQAND VILOYATIDA MAHALLIY BUDJETLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	25
Uzakova Kamola Bexzodovna	
O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	31
Xolmurodova Moxichehra Dilmurodovna	
THE IMPACT OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT ON ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM AN ARDL BOUNDS TESTING APPROACH (2000–2024)	36
Ortikov Olloberdi Muzaffar o'g'li	
Rajabova Malika	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI	44
Rustamova Dildora Jamshid qizi	
THIS STUDY EXAMINES BEIJING'S EXPERIENCE IN PROMOTING CROSS-BORDER E-COMMERCE IN TASHKENT FROM THE PERSPECTIVE OF REGIONAL COOPERATION	50
Wang Jiahao	
DORI VOSITALARIGA OID AXBOROTLARNI BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTLARIDA AKS ETTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	58
Yodgorov Xushvakt Mansurovich	
AGROSANOAT MAJMUINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA JAMLANMA DARAJA VA KANALLARARO TAKRORLANISHNI O'LCHASH METODIKASI: «YASHIL» YO'NALISHLAR MISOLIDA	63
Xudaynazarov Bekzod Akramovich	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА АКТИВОВ И СТАБИЛЬНОСТИ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	69
Баймуратова Зина Акилбековна	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYAVIY MUHITNI YANADA RIVOJLANTIRISH VA INFLYATSIYANING SALBIY OQIBATLARINI KAMAYTIRISH YO'NALISHLARI	75
Niyozov Asad Qosimovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	80
Afenov Nursultan Nugmatillayevich	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	86
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
GREEN BONDS IN UZBEKISTAN: OPPORTUNITIES, INSTITUTIONAL DEVELOPMENT AND BARRIERS TO SUSTAINABLE FINANCE	92
Umarova Zulaykho Tursunovna	
YASHIL INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	97
Teshayev Zafarbek Zokirovich	



RAHBARLIK LAVOZIMLARIDA XOTIN-QIZLAR ULUSHI VA MAVJUD STROTEPLAR TAHLILI	103
Abduraxmonova Feruzabonu Abduraxmon qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	109
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
KATTA HAJMLI IQTISODIY MA'LUMOTLAR (BIG DATA) SHAROITIDA EKONOMETRIK BAHOLASH USULLARINING NAZARIY TRANSFORMATSIYASI.....	115
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
EFFECTIVE MECHANISMS FOR MANAGING ORGANIZATIONAL ECONOMIC SUSTAINABILITY IN THE PROCESS OF JOB OPTIMIZATION.....	121
Odilov Jakhongir Akram ugli	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI BANK KREDITLARI ORQALI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	128
Abdullayev Ahrorjon Akmaljon o'g'li	
ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA PERFORMANCE MARKETINGDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	134
Azizova Roxila Baxodir qizi	
IQTISODIYOT NAZARIYASI: NAZARIY ASOSLARDAN AMALIYOTGACHA BO'LGAN IQTISODIY JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	139
Xamdamiy Amriddin Xamdamiy o'g'li	
УПРАВЛЕНИЕ И ПРИНЯТИЕ РЕШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.....	145
Taravat Abdul Salam	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЙ ПОДХОД В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ РАЗВИТИЕМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ	152
Ikrayeva Nodira Burxon kizi	
STOCK MARKET DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN, 2023–2026: INSTITUTIONAL REFORM, PRIVATIZATION, AND EVIDENCE FROM PRIMARY EXCHANGE MICRODATA.....	159
Alekperova Dilshodakhon	
Toshkentov Kuvonchbek	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI.....	167
Bozorov Ilyos Isomiddinovich	



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI

Bozorov Ilyos Isomiddinovich

TTYSI mustaqil izlanuvchisi, TAFU

“Tarmoqlar iqtisodiyoti va buxgalteriyasi” kafedrası v.b. dotsenti (PhD)

E-mail: Ilyosbozorov1986@gmail.com

Annotatsiya. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarning o'rni va kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda tijorat banklarining ahamiyati yoritilgan. Tijorat banklarining o'z moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishi hamda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatayotgan bank xizmatlarining iqtisodiy ahamiyati ochib berilgan. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar, shuningdek, ushbu sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning ahamiyati ilmiy jihatdan bayon etilgan.

Kalit so'zlar: milliy daromad, kichik va o'rta biznes, tadbirkorlik, tijorat banklari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, subsidiya, innovatsiya, tovar aylanmasi, investitsiya, makroiqtisodiy barqarorlik, investor, yalpi ichki mahsulot, yalpi hududiy mahsulot, xususiy sektor, iqtisodiy resurslar, kapital, moliyaviy xavfsizlik.

Abstract. The role of banks in the development of the national economy and the importance of commercial banks in providing financial support to small businesses and private entrepreneurs are examined. Particular attention is paid to the effective use of financial resources by commercial banks and the economic significance of banking services provided to business entities. The opportunities created by the state for the development of small and medium-sized businesses, as well as the importance of attracting foreign investment to this sector, are also discussed from an academic perspective.

Keywords: national income, small and medium-sized businesses, entrepreneurship, commercial banks, financial support, subsidies, innovation, trade turnover, investment, macroeconomic stability, investor, gross domestic product, gross regional product, private sector, economic resources, capital, financial security.

Аннотация. Рассматриваются роль банков в развитии национальной экономики и значение коммерческих банков в финансовой поддержке субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства. Особое внимание уделено эффективному использованию финансовых ресурсов коммерческими банками и экономическому значению банковских услуг, предоставляемых субъектам предпринимательства. Также с научной точки зрения освещены возможности, создаваемые государством для развития малого и среднего бизнеса, и значение привлечения иностранных инвестиций в данную сферу.

Ключевые слова: национальный доход, малый и средний бизнес, предпринимательство, коммерческие банки, финансовая поддержка, субсидии, инновации, товарооборот, инвестиции, макроэкономическая стабильность, инвестор, валовой внутренний продукт, валовой региональный продукт, частный сектор, экономические ресурсы, капитал, финансовая безопасность.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes subyektlari milliy iqtisodiyotning muhim bo'g'ini sifatida qaraladi. Ular nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratish, balki hududiy iqtisodiyotni faollashtirish, innovatsiyalarni joriy etish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Shu bois kichik biznesni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kichik biznes subyektlarining rivojlanishidagi eng muhim omillardan biri ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes subyektlari milliy iqtisodiyotning asosiy tayanchlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu subyektlar mamlakatda bandlik darajasini oshirish, ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, eksport salohiyatini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy qilish, ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shunday ekan, kichik biznes subyektlarining barqaror



rivojlanishini ta'minlash, avvalo, ularni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Bu borada tijorat banklarining roli alohida ahamiyatga ega.

Tijorat banklari iqtisodiyotda moliyaviy vositachi sifatida ishtirok etib, mavjud jamg'armalarni investitsiyaviy loyihalarga yo'naltirish, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish, to'lov xizmatlari va boshqa bank xizmatlarini ko'rsatish orqali iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Ayniqsa, kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda tijorat banklarining faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklari kichik biznesni, asosan, quyidagi shakllarda moliyaviy qo'llab-quvvatlaydi: qisqa, o'rta va uzoq muddatli kreditlar ajratish; mikrokreditlar orqali kichik hajmdagi moliyaviy xizmatlar ko'rsatish; lizing, faktoring kabi zamonaviy moliyaviy vositalar orqali resurslar taqdim etish; davlat dasturlari doirasida imtiyozli kreditlar taqdim etish; kafolat va garovga oid xizmatlar ko'rsatish hamda bank kafolatlari va akkreditivlar orqali tashqi iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida bir qator huquqiy, institutsional va moliyaviy islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, Prezident qarorlari asosida tijorat banklariga kichik biznesni moliyalashtirish uchun imtiyozli kredit liniyalari ajratilmoqda, foiz stavkalarining bir qismini qoplash yoki kafolatlar taqdim etish mexanizmlari amaliyotga joriy etilmoqda. Bu esa kichik tadbirkorlarning bank xizmatlaridan foydalanish va ajratilgan mablag'larni real sektorga yo'naltirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tijorat banklarining kichik biznesga xizmat ko'rsatishdagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Moliyaviy risklarni samarali boshqarish — kichik biznes subyektlarida faoliyat barqarorligini yanada mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Shu sababli banklar har bir loyiha bo'yicha individual tahlil o'tkazadi, bu esa moliyalashtirish bo'yicha asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

2. Garov ta'minoti imkoniyatlarini kengaytirish — kichik tadbirkorlarning kredit olish imkoniyatlarini oshirishda ko'chmas mulk, jihozlar yoki boshqa aktivlardan samarali foydalanish muhim hisoblanadi. Shu bois davlat kafolatlari tizimi muhim rol o'ynaydi.

3. Foiz stavkalarini maqbullashtirish — risk darajasini hisobga olgan holda banklar kichik biznes subyektlari uchun tegishli foiz stavkalarini belgilashi mumkin. Bunday hollarda davlat subsidiya mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash ko'rsatiladi.

4. Moliyaviy va hujjatlar bilan ishlash savodxonligini oshirish — kichik tadbirkorlarning biznes-reja tuzish, moliyaviy hisobot tayyorlash va kredit shartlarini tushunish bo'yicha bilim hamda tajribasini yanada oshirish muhim ahamiyatga ega. Tijorat banklari bu yo'nalishda maslahat va o'quv xizmatlarini kuchaytirmoqda.

5. Mikrokreditlash tizimini rivojlantirish — kichik miqdordagi, tezkor va soddalashtirilgan kreditlar berish orqali banklar, ayniqsa, yangi faoliyat boshlayotgan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlamoqda.

Amaliyotda tijorat banklari kichik biznesni moliyalashtirishda turli sektorlar bo'yicha ustuvorliklarni belgilagan. Misol uchun, xizmat ko'rsatish sohasi, savdo, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish sohalariga yo'naltirilgan kreditlarga alohida e'tibor qaratiladi. Bu esa real sektorning turli yo'nalishlarini muvozanatli rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, "Asakabank", "Milliy bank", "Ipoteka-bank", "Mikrokreditbank" va boshqa yirik tijorat banklari o'zlarining hududiy filiallari orqali kichik biznes subyektlari bilan bevosita hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Ayniqsa, hozirgi davrga kelib elektron bank xizmatlari, raqamli platformalar orqali ariza topshirish, biznes-reja va boshqa zarur hujjatlarni onlayn baholash amaliyotlari samaradorlikni oshirmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, tijorat banklari kichik biznesning barqaror faoliyat yuritishida, yangi loyihalarni moliyalashtirishda va iqtisodiy faollikni oshirishda muhim moliyaviy vositachi hisoblanadi. Bank tizimi orqali kichik biznesga resurslar ajratish nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Kichik biznes subyektlarining o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish, ularning moliyaviy savodxonligini oshirish, garovsiz kredit mexanizmlarini takomillashtirish orqali bu sohaning yanada rivojlanishiga erishish mumkin. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy rag'batlantirish zamonaviy iqtisodiyotning asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Tijorat banklari korxonalarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda, investitsiyalar, o'sish va innovatsiyalarga ko'maklashishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu jarayon turli sektorlar va rivojlanish bosqichlari bo'yicha korxonalarning turli ehtiyojlariga moslashtirilgan mexanizmlar, mahsulotlar va xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Kreditlar va kredit liniyalari tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishning asosiy vositalaridir. Ushbu moliyaviy mahsulotlar korxonalarga turli maqsadlarda, jumladan, faoliyatni kengaytirish, aylanma mablag'larni shakllantirish, inventarlarni boshqarish va asbob-uskunalar sotib olish uchun kapitaldan foydalanish imkoniyatini beradi.

Foiz stavkalari: Kreditlar va kredit liniyalari bo'yicha olinadigan foiz stavkalari moliyaviy rag'batlantirishning muhim omilidir. Banklar foiz stavkalarini bozor sharoitlari, Markaziy bank siyosati va qarz oluvchining kreditga layoqatliligi kabi omillarga qarab o'zgartiradi.



Asosiy stavka: Tijorat banklari ko'pincha kredit stavkalarini asosiy stavkaga asoslaydi. Asosiy stavkaning o'zgarishi turli moliyaviy mahsulotlar, shu jumladan, biznes uchun kreditlar va kredit liniyalari bo'yicha foiz stavkalariga ta'sir qiladi.

Risk mukofoti: Banklar kredit risklarini qoplash uchun kreditlar bo'yicha risk mukofotini olishi mumkin. Risk mukofoti qarz oluvchi bilan bog'liq bo'lgan kredit xavfini va kreditning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Muddatli tuzilma: Foiz stavkalarining muddatli tuzilishi yoki qisqa muddatli va uzoq muddatli foiz stavkalari o'rtasidagi bog'liqlik ham qarz olish qarorlariga ta'sir qiladi. Korxonalar foiz stavkalari nisbatan qulay bo'lgan qisqa muddatli kreditlar va barqarorligi yuqori bo'lgan uzoq muddatli kreditlar o'rtasida o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib tanlov qilishi mumkin.

Likvidlik imtiyozi: Banklarning foiz stavkalari investorlarning likvidlik afzalliklarini va kelajakdagi foiz stavkalari harakati haqidagi taxminlarini aks ettiradi. Likvidlik sharoitlari va bozor kayfiyatidagi o'zgarishlar korxonalar uchun qarz olish narxiga ta'sir qilishi mumkin.

Tijorat banklari kredit yoki kredit liniyalari berishdan oldin korxonalarning kreditga layoqatligini baholash uchun turli mezonlardan foydalanadi. Ushbu mezonlar banklarga kredit risklarini baholashga va moliyalashtirish shartlarini aniqlashga yordam beradi.

Moliyaviy salomatlik: Banklar daromadlilik, likvidlik, leveraj va to'lov qobiliyati kabi omillarni o'rganish orqali korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qiladi. Qarzning o'z kapitaliga nisbati yoki joriy nisbat kabi moliyaviy ko'rsatkichlar biznesning qarzni to'lash qobiliyati haqida tushuncha beradi.

Soliq imtiyozlari: Hukumatlar ustuvor tarmoqlarga kredit beradigan yoki ijtimoiy mas'uliyatli kreditlash amaliyotida ishtirok etadigan banklarga soliq imtiyozlarini taklif qiladi. Soliq imtiyozlari yoki chegirmalar banklarni arzon uy-joy, toza energiya yoki jamiyatni rivojlantirish tashabbuslari kabi ijobiy ijtimoiy va atrof-muhitga ta'sir ko'rsatadigan loyihalarga kapital ajratishga undaydi.

Tijorat banklari korxonalarga moliyaviy maslahat xizmatlarini taqdim etib, moliyaviy rejalashtirish, risklarni boshqarish, investitsiya strategiyalari va kapital tuzilmasini optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Strategik rejalashtirish: Banklar korxonalarga o'sish maqsadlari, xavf-xatarlarga chidamlilik va bozor dinamikasiga mos keladigan strategik moliyaviy rejalarni ishlab chiqishda yordam beradi. Strategik rejalashtirish sanoat tendensiyalarini, raqobatbardosh muhitni va makroiqtisodiy omillarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Tadbirkorlar o'zlarining moliyaviy resurslarini xavfsiz saqlash uchun tijorat banklarida hisobvaraqlar ochishlari mumkin. Banklar, shuningdek, pul mablag'larini saqlash orqali tadbirkorlarga hujjatli operatsiyalar va to'lov jarayonlarini tashkil etish imkonini beradi. Xalqaro savdo va biznes faoliyatida tadbirkorlarda valyuta operatsiyalariga ehtiyoj yuzaga kelishi mumkin. Tijorat banklari ushbu operatsiyalarni tashkil etish uchun valyuta ayirboshlash, valyuta hisobvaraqlarini ochish va valyuta kreditlarini taqdim etish imkonini beradi.

Tijorat banklari tadbirkorlarga biznes-rejalar, moliyaviy strategiyalar, investitsiya yo'nalishlari va boshqa xizmatlar bo'yicha konsultatsiyalar beradi. Bu tadbirkorlarga o'z faoliyatini rivojlantirish va samarali tashkil etishda yordam beradi. Tijorat banklari tadbirkorlarga elektron to'lovlar, internet-banking va mobil banking xizmatlarini taqdim etish orqali moliyaviy operatsiyalarini avtomatlashtirish imkonini beradi.

Tijorat banklari tadbirkorlarga moliyaviy masalalarni hal qilish va xalqaro savdo xavfsizligini ta'minlashda ham ko'maklashadi. Ularning moliyaviy tahlil va rivojlanish bo'limlari tadbirkorlarga strategik rejalarni amalga oshirishda yordam beradi. Shuningdek, tijorat banklari tadbirkorlarga yangi bozorlarga kirish, kredit reytingi va kredit tarixini rivojlantirishga oid ma'lumotlarni taqdim etish orqali ularning faoliyatini yanada rivojlantirish imkonini beradi. Tijorat banklari tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, aholi bandligini ta'minlash, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va tadbirkorlik tashabbuslarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish kabi vazifalarni bajarishda katta ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalasi iqtisodiy adabiyotlarda muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida qoraladi. Xususan, J. Schumpeter tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini yoritib, tadbirkorning innovatsiyalarni joriy etish, yangi mahsulot va texnologiyalarni yaratish hamda ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanishdagi rolini asoslab bergan. Uning qarashlarida moliyaviy resurslardan foydalanish tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklari tadbirkorlik subyektlarining investitsion va ishlab chiqarish faoliyatini moliyalashtiruvchi asosiy moliyaviy institutlardan biri hisoblanadi [1].

R. Levine va boshqa tadqiqotchilarning moliyaviy rivojlanish bo'yicha ilmiy ishlarida bank tizimining iqtisodiy o'sishga ta'siri keng tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlarda moliyaviy vositachilikning rivojlanishi jamg'armalarni investitsiyalarga yo'naltirish, tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish va iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Ayniqsa, tijorat banklari tomonidan kredit resurslarining tadbirkorlik subyektlariga yetkazib berilishi



yangi biznes loyihalarini amalga oshirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va aylanma mablag'lar bilan ta'minlash imkoniyatlarini oshiradi. Shu sababli adabiyotlarda bank kreditlari kichik va o'rta biznesning barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy moliyaviy mexanizmlardan biri sifatida baholanadi [2].

G. Beck, A. Demirgüç-Kunt va R. Levine tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik va o'rta biznes subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari hamda moliyaviy cheklavlarning ularning rivojlanishiga ta'siri o'rganilgan. Mualliflar kichik biznes subyektlarining yirik korxonalarga nisbatan moliyalashtirish imkoniyatlari nisbatan torroq bo'lishi mumkinligini ko'rsatib, bank tizimining ushbu holatni yumshatishdagi ahamiyatini asoslaydi. Ayniqsa, kredit olish jarayonidagi talablar, garov ta'minoti, foiz stavkalari, axborot nomutanosibliigi va tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligi kabi omillar moliyaviy qo'llab-quvvatlash samaradorligiga ta'sir qilishi qayd etiladi. Mazkur yondashuv tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhimligini ko'rsatadi [3].

O'zbekiston olimlari tadqiqotlarida ham tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, tijorat banklarining kredit siyosati, kichik biznesni kreditlash va investitsion faoliyatni moliyalashtirish masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, A. Vahobov, N. Jumayev, Sh. Abdullayeva kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida bank tizimi, kredit munosabatlari, moliyaviy resurslardan foydalanish va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda tijorat banklarining kredit, investitsiya, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlari tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda ularning ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishda muhim vosita ekanligi asoslangan [4].

Yuqoridagi ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda tijorat banklari nafaqat kredit beruvchi, balki moliyaviy vositachi, investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlovchi va biznes rivojlanishiga ko'maklashuvchi institut sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda kredit resurslarining narxi, garov ta'minoti, kredit olish imkoniyati, raqamli bank xizmatlari va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini baholash masalalarini o'zaro bog'liq holda kompleks tadqiq etish imkoniyatlari mavjud. Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda tijorat banklarining tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashdagi o'rnini baholash, mavjud imkoniyatlarni aniqlash va bank xizmatlarining samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda globallashtirish va raqobat sharoitida O'zbekiston tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlari, jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlarni baholash uchun tizimli, qiyosiy va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari hamda xalqaro moliyaviy tashkilotlarning ochiq ma'lumotlari tashkil etdi.

O'zbekistondagi banklarda bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar, banklarning moliyaviy samaradorligi, innovatsion faoliyati va raqobatbardoshligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Shuningdek, banklarning moliyaviy resurslarining mavjud holati va istiqbollarni aniqlash maqsadida SWOT-tahlil usulidan foydalanildi.

Olingan natijalar asosida O'zbekiston tijorat banklarining tadbirkorlar va jismoniy shaxslarga taqdim etiladigan moliyaviy resurslari hamda ularning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari tadbirkorlik subyektlariga kreditlar ajratish, moliyalashtirish, kafilliklar berish, kompensatsiyalar taqdim etish hamda shaffoflikni ta'minlash kabi imtiyozlar orqali tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga ko'maklashadi. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun tijorat banklari tomonidan bir yil davomida ko'rib chiqilgan loyihalarga jami 12,2 trln so'm miqdorida kredit mablag'leri ajratilgan. Ushbu mablag'lar tadbirkorlik subyektlari tomonidan yangi ish o'rinlarini yaratish, xizmatlar ko'rsatish va ishlab chiqarish hajmini oshirish, aholining doimiy daromad manbalarini shakllantirish kabi maqsadlarga yo'naltiriladi.

Tijorat banklari tadbirkorlik subyektlariga milliy valyutadagi bank kreditlari bo'yicha kompensatsiya berish imkoniyatlarini ham taqdim etadi. Ushbu imtiyozlar orqali tadbirkorlik subyektlari kompensatsiya qo'llanilishi mumkin bo'lgan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarini maqbullashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kredit munosabatlarida banklar kreditga yoki qarzga berilgan summaning o'z vaqtida qaytarilishini hamda belgilangan foiz to'lovlarining o'z muddatida amalga oshirilishini nazarda tutadi. Banklar kredit risklarini samarali boshqarishga intilib, kredit ajratishdan oldin moliyalashtiriladigan sohaning risk darajasini o'rganadi va baholaydi. Tahlil natijalari asosida risk darajasi maqbul bo'lgan hollarda kredit ajratish to'g'risida ijobiy qaror



qabul qilinadi. Shu bilan birga, kreditlash jarayonida kutilayotgan natijalarga turli iqtisodiy omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin (1-jadval).

1-jadval

Tijorat banklarining kredit va depozitlari to'g'risida 2026-yil 1-yanvar holatiga ma'lumot¹, mlrd so'm

№	Bank nomi	Jami kreditlar	shundan		Jami depozitlar	shundan	
			jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar		jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar
	Jami	604 002	220 283	383 720	417 258	160 401	256 857
	Davlat ulushi mavjud banklar	404 469	116 130	288 339	212 671	74 696	137 974
1	O'zmilliybank	105 382	22 315	83 067	50 447	16 741	33 707
2	Agrobank	81 108	16 523	64 585	33 585	15 945	17 640
3	O'zsanoatqurilishbank	64 936	9 707	55 229	31 453	10 448	21 004
4	Asaka bank	41 464	12 861	28 603	21 826	8 730	13 096
5	Xalq banki	33 600	23 565	10 035	26 618	6 399	20 219
6	Biznesni rivojlantirish banki	24 552	13 659	10 893	15 241	4 197	11 044
7	Mikrokreditbank	20 278	8 419	11 859	9 727	3 224	6 502
8	Aloqa bank	18 810	5 500	13 311	15 530	6 269	9 261
9	Turon bank	14 338	3 581	10 758	8 243	2 743	5 501
	Boshqa banklar	199 533	104 153	95 381	204 588	85 705	118 882
10	Ipoteka-bank	35 443	27 822	7 621	27 814	5 941	21 872
11	Kapital bank	36 307	19 926	16 381	44 355	26 111	18 244
12	Hamkorbank	23 965	8 621	15 344	15 116	8 713	6 403
13	Ipak yo'li bank	16 074	3 634	12 440	14 649	5 438	9 211
14	Orient Finance bank	14 212	5 897	8 314	12 439	3 518	8 922
15	Tibisi bank	10 346	9 169	1 177	7 072	6 099	973
16	Anor bank	10 092	8 470	1 622	13 168	8 603	4 565
17	Davr bank	8 892	5 438	3 454	4 963	1 924	3 040
18	Invest Finance bank	9 480	4 273	5 207	11 083	5 990	5 093
19	Trastbank	7 941	4 128	3 814	9 594	2 998	6 596
20	Tenge bank	4 445	1 531	2 914	2 442	1 149	1 293
21	Asia Alliance bank	4 341	1 607	2 734	6 508	2 448	4 061
22	KDB Bank O'zbekiston	3 458	9	3 449	7 274	752	6 523
23	Hayot bank	4 688	1 589	3 099	4 934	870	4 064
24	Ziraat Bank Uzbekistan	2 177	107	2 070	1 630	738	892
25	Universal bank	2 047	486	1 561	3 194	1 607	1 587
26	Garant bank	1 456	231	1 225	3 411	567	2 844
27	AVO bank	890	878	13	313	214	99
28	Apeks bank	1 426	110	1 315	2 033	305	1 728
29	Oktobank	495	32	463	10 841	490	10 352
30	Madad Invest bank	427	50	378	216	67	148
31	Poytaxt bank	283	92	192	271	97	174
32	Open bank	343	7	336	43	33	10
33	Yangi bank	195	39	156	412	308	104
34	Uzum bank	99	2	97	769	724	45
35	Soderot bank	11	6	5	42	2	40

1-jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, davlat ulushi mavjud bo'lgan 9 ta bank faoliyat yuritayotganini ko'rish mumkin. Jumladan, O'zmilliybank, Agrobank, O'zsanoatqurilishbank, Asakabank va Xalq bankida moliyaviy resurslar hajmi salmoqli o'ringa ega. Ushbu resurslar keyinchalik kreditlar ajratish yoki qimmatli qog'ozlarga investitsiya kiritish uchun ishlatiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarining iqtisodiy faoliyatida ularning moliyaviy resurslari muhim ahamiyatga ega. "Resurs" tushunchasi ko'plab ma'nolarda, jumladan, moliyaviy, iqtisodiy, insoniy, tabiiy va boshqa mazmunlarda qo'llaniladi. Bank resurslari — bu bankning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lari yig'indisi bo'lib, ular bankning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi. Shu jihatdan bank resurslari hajmini yanada kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Muallif ishlanmasi



Tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish va ularning moliyaviy holatini yaxshilash muhim ahamiyatga ega. Bank resurslarini shakllantirish uchun banklar yangi mijozlarni jalb qiladi va jamg'arma resurslarini kengaytiradi. Ushbu resurslar orqali iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishiladi. Moliyaviy resurslar tarkibiga, xususan, vaqtincha bo'sh turgan mablag'lar, soliqlar va omonatlar kiradi. Banklar ushbu resurslardan asosiy moliyaviy manbalardan biri sifatida samarali foydalanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni. — Yangi tahrir.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentabrdagi "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3270-son qarori : <https://lex.uz/uz/docs/-3342348>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3272-son qarori: <https://lex.uz/uz/docs/-3339554>
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Markaziy bankning 2025-yil uchun hisoboti [Elektron resurs]. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026. — URL: <https://cbu.uz/uz/publications/annualreport/> (murojaat sanasi: 08.09.2026).
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "2025–2028-yillarda banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan 'Yo'l xarita' tasdiqlandi" [Elektron resurs]. — 2025. — URL: https://cbu.uz/uz/press_center/news/3049874/ (murojaat sanasi: 08.09.2026).
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Litsenziyalash va ruxsat berish sohasida 2025-yilda amalga oshirilgan tizimli islohotlar [Elektron resurs]. — 2026-yil 9-yanvar. — URL: https://cbu.uz/uz/press_center/releases/3269107/ (murojaat sanasi: 08.09.2026).
8. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi: rasmiy veb-sayt [Elektron resurs]. — URL: www.mineconomy.uz.
9. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi: rasmiy veb-sayt [Elektron resurs]. — URL: www.mehnat.uz.
10. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi: rasmiy veb-sayt [Elektron resurs]. — URL: www.mf.uz.
11. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi: rasmiy veb-sayt [Elektron resurs]. — URL: www.stat.uz.
12. O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi: rasmiy veb-sayt [Elektron resurs]. — URL: www.ima.uz.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
